



Shurtan GKM

"O'zbekneftgaz" AJ
"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJ
MTRB xizmati
RO'YXATGA OLINDI
<u>074/028-4199</u>
2024 yil "6" mart

TASDIQLAYMAN

"Shurtan GKM" MChJ
SX, SS, M va AMMB boshlig'i –

bosh mutaxassis

U.Xaydarov



2024 y.

Qayd. № 074/_____

"Shurtan GKM" MChJ
Yopiq radionuklid manbalarining germetiklik tekshiruvini o'tkazishga
TEXNIK TOPSHIRIQ

ShGKM - 2024 y.

I. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. Nomi

Yopiq radionuklid manbalarining germetiklik tekshiruvini o'tkazish

1.2. Xizmatni sotib olishning asosiy maqsadi va asosi.

1.1 Yillik buyurtma 2024.

1.2 Majmuaning Polietilen ishlab chiqarish sexidagi polimer sathini o'lchashga mo'ljallangan SA-1 tipida 5 (besh) dona.

1.3. Majmuaning Polietilen ishlab chiqarish sexidagi polimer sathini o'lchashga mo'ljallangan SA-15 tipida 3 (uch) dona.

Yopiq radionuklid manbalarining germetiklik xulosasi muddati tugayotganligi sababli, "Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN-2006) va radiatsiya xavfsizligini ta'minlashning asosiy sanitar qoidalari (RXTASQ-2006)"ning 3.7.2. bandiga asosan germetiklik tekshiruvini o'tkazish va xulosa olish.

II. QO'LLANISH DOIRASI

1. Xizmat ko'rsatish joyi – O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani, Shurtan qo'rg'oni "Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJ

III. ISHNI YETKAZIB BERISH VA QABUL QILISH TARTIBIGA TALABLAR

1. Ijrochi Majmuadagi yopiq radionuklid manbalarining germetiklik tekshiruvini ISO 9978:1992(E)ga mos holda o'tkazish va xulosa berish;
2. Ish tugagandan keyin ishlar bajarilganligi to'g'risidagi dalolatnama, hisobot va xulosalarni Buyurtmachiga topshirish;
3. Ijrochi Buyurtmachiga taqdim qilayotgan hisobotda barcha yopiq radionuklid manbalarining radioaktiv ifloslanish darajasi miqdori (aktivligi) ni ko'rsatish (Bk da).
4. Ijrochi Buyurtmachiga barcha hujjatlarni o'zbek lotin alifbosida taqdim qilish.

IV. BAJARUVCHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

1. Ijrochi mazkur ishni bajarish jarayonida ushbu ishlarni bajarish uchun barcha tegishli hujjatlarga ega bo'lishi kerak:
 - yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnomasi;
 - tegishli faoliyat bilan shug'ullanish uchun litsenziyasi;
 - tashkilot nizomi.
2. "Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN-2006) va radiatsiya xavfsizligini ta'minlashning asosiy sanitar qoidalari (RXTASQ-2006)" talablari asosida, ionlashtiruvchi nurlanish manbalari sohasida tajribaga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan ilmiy tashkilot bo'lishi.
3. Akkridetatsiyadan o'tgan maxsus laboratoriysi mavjud bo'lishi.

V. XIZMAT KO'RSATISH TALABLARI

Shartnomada imzolangan kundan boshlab, ijrochi shartnomada ko'rsatilgan ishlarni 15 (o'n besh) ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda bajarishi lozim.

VI. XIZMAT KO'RSATISHDA MAXFIYLIK VA XAVFSIZLIK TALABLARI



O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va me'yoriy hujjatlariga muvofiq, xalqaro talablar hamda amaldagi mehnatni muhofaza qilish va radiatsiyaviy xavfsizlik qoidalari, sanitariya qoida va me'yorlarini hisobga olgan holda.

VII. MOLIYALASHTIRISH MANBASI

"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJning o'z mablag'lari.

Ishlab chiqdi:

Radiatsiyaviy xavfsizlik guruhi muhandisi

Sh. Tupliyev

Kelishildi:

SS va MM xizmati boshlig'i

Z. Rashidov

Radiatsiyaviy xavfsizlik guruhi rahbari

Sh. Bobonazarov

MTRB guruh rahbari:

U. Omonov

